

## TARIXDAN TARIXSHUNOSLIK SARI

*Saparov Abdulvosit Abdulmajid o'g'li*

*Andijon davlat universiteti*

*Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi*

*II bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Bu tezisda tarixshunos sifatida tarixiy shaxslarga baho berishda tarixiy shaxslar haqida yozib qoldirgan asar mualliflarining shaxsi va laboratoriyasi tahlil qilingan. Tahlil uchun Amir Temur va u haqida yozib qoldirilgan asar mualliflari misol qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk ahdnoma, Alanquva binti Chuymanaxon, Tuminaxon, amir Qazag'on,

Tarixiy jarayonlar aniq bir makonda, zamonda ayni bir shaxs bilan namoyon bo'ladi. Lekin bu - fandan kelib chiqayotgan xulosa va g'oyalar asrlar davomida aniq manbaalar tomonidan emas balki, milliylik va hududiylik hamda diniylik qobig'iga o'ralgan turli xil mafkuralar ta'siri ostida o'zgartirilmogda. Aslini olganda hattoki qadimda yozilgan manbaalarning o'zi ham yuqoridagi xavfdan holi bo'lgan emas. Muxtasar qilib aytganda, manbaalar va faktlar jamiyatda muayyan mafkura shakllanishida bosh omil bo'lsa, ayni damda mafkura ham tarixning qanday yozilishini belgilamoqda. Ya'ni "tarixni g'oliblar yozadi" qabilidagi adolatsiz ammo, hayotiy haqiqat bizni manbaadan ham ko'ra, avvalo, mualliflarning shaxsiyatini tekshirishga majbur qilmoqda. Muhim nuqta shuki, tarix fani fiqh emaski Qur'on va Sunnat kabi inkor etib bo'lmas manbaalarga ega bo'lsa. Aksincha, barcha tarixiy asarlarda to'laqonli tarzda inson omili mavjud. Ammo bu qoida tarixiy jarayonlar va tarix faniga xolisona baho bermaslikka bahona bo'lmaydi. Ya'ni inson omili asosiy ro'lda bo'lsada, mazkur fanga xolisona yondashish talab qilinadi. Ilgari surilayotgan bu fikr mohiyatini quyidagi buyuk bir jahongirning shaxsiyati va faoliyatini tahlil qilish orqali o'rganishni taklif qilamiz.

Sohibqironi akbar Amir Temur Ko'ragoniy safdar sharqning yirik yulduzi va sarkardasi. Asrlar davomida sharq va g'arbni qiziqtirib kelayotgan jahongir. U inson haqida har qancha ijobiy madhlarni aytsang arziydi, hattoki kamdek.. Milliylik tuyg'usidan kelib chiqib, Amir Temurga xoslanmagan sifat va noaniqliklarni xoslash, bizningcha Temurbekka nisbatan yumshoq haqoratdek.

Bu sarkardaning shaxsiyatiga turli davrlarda turlicha yondashganlar. Bulardan eng ko'zga ko'ringanlari mahalliy tarixchilar (aslida fors bo'lsalarda) Nizom ad-din al-Vosi Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning bir xil nomdagi "Zafarnoma"lari, Ibn Arabshoh "Ajoyib Al-Maqdur fi tarixi Taymur" asari bilan, chel ellik Rui Gonsalez

de Klavixo “Samarqandga sayohat kundaligi”, Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” tanqidiy asari, M.Ivanin “ Ikki buyuk sarkarda” asari, Keren Lyusyen “Amir Temur saltanati” asari bilan Amir Temurga nisbatan munosabat bildirganlar.

Yuqorida keltirilgan asarlar ham xolisligiga ko‘ra ham tasniflangan: Ibn Arabshoh Amir Temurni qaroqchi va savodsizga chiqargan bo‘lsa, forslik tarixchilar o‘z “zafarnoma”larida oz qolsa ilohiylashtirib yuborgan edilar. Ammo Klavixo, Ivanin, Vamberi asarlari borasida G‘arb tarixshunosligi ijobiy fikrda. Ular o‘z fikrlarini Ibn Arabshohning Amir Temurga munosabatini uning Kichik Osiyoga yurishlarida qo‘lga kiritilgan g‘animatlar ichida usta hunarmand sifatida olib keltirilgan Ibn Arabshohning otasi Samarqandda quldek ishlatilgani ortidan yuzaga chiqqan nafrati bois deb, dalillaydilar. “Zafarnoma”larni esa dastlab Amir Temurga madh niyatida, so‘ng esa temuriyzoda Ibrohim Sulton homiyligida yozilganini e’tirof etadilar. Qolgan tarixchilarning voqeliklarini nisbatan haqiqatga yaqin deb gumon qiladilar. Boisi, ularning barchasini elchi ko‘rinishidagi josuslar ekanliklarini tan olgan holda, ular uchun sultonni madh etish yoki pastga urish o‘zlariga hech qanday foyda keltirmagan, askincha bu hudud haqida iloji boricha ko‘p va ishonchli ma’lumot kerak edi. Ularning har bir no‘to‘g‘ri ma’lumoti ularni yuborgan tomonning diplomatik qarorlariga ta’sir etishi mumkinligi sezganlar.

Ammo Amir Temur haqida o‘zining biografik asari “Tuzukoti Temur”ni e’tibordan qochirmaslik lozim. Unda Temurbekning siyosiy va iqtisodiy hamda ma’naviy faoliyatida olib borgan nozik strategiyalari haqida ma’lumot berilgan.

Barcha manbaalarga qaramay hali hamon Amir Temur haqida ba’zi ma’lumotlar va talqinlarga aniq nuqta qo‘yib bo‘linmadi. Bulardan hali ham siyqasi chiqqan Amir Temur mo‘g‘ul yoki turkiyligi haqidagi bahslar. Demak, dastlab, Amir Temurga oid yozilgan shajaralarga to‘xtalish joiz.

Amir Temurni haligacha mo‘g‘ul deyuvchilarning hujjati shuki: Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul (Berkli) ibn Ejil no‘yon, ibn Qorachor no‘yon ibn Amir Sog‘u Chechan no‘yon ibn Erumchi barlos ibn Qochuvli bahodir ibn Tuminaxondir. Bu shu yerda Tuminaxonga to‘xtalamiz. Abulg‘oziy Bahodirxonning “shajarai turk” va “ Mirzo Ulug‘beklarning “Tarixi arba’ ulus” manbalariga ko‘ra Sohibqironi A‘zam Qooni Muazzam Temuchin (Chingizxon) quyidagi 3 ajdod bilan ayni bir shaxsga borib taqaladi. Ya’ni, Temuchin ibn Yasugay ibn Barton Bahodirxon ibn Qo‘ylixon(Qobil) ibn Tuminaxondir. Ya’niki Amir Temur va Temuchin bir otaning avval va keyinroq davrlaridagi farzandlaridir. Amir Temurdan avvalroq yashagan Temuchin mo‘g‘ul bo‘lishi birga unga qardosh deb qaralayotgan Amir Temur ham go‘yoki uning ortidan mo‘g‘uldek taassurotni uyg‘otadi. Hattoki, Amir Temurning bobolaridan

So‘g‘u Chechan Chingizxonga Temuchin ismini qo‘yganligi haqida “tarixi arba’ ulus”da berilib o‘tgan.

“Amir Temur mo‘g‘ul emas ayni turkdir” deyuvchilarning hujjati esa quyidagicha: shajaramizni Tuminaxondan davom etamizki, Tuminaxon ibn Boysung‘irxon ibn Qoyduxon ibn Dutminxon ibn Buqoxon ibn Buzanjarxon ibn Alanquva bintu Chuymanaxon. Ma‘lumot uchun Alanquva bintu Chuymanaxon ayol kishidir. Afsonalarga ko‘ra u noma‘lum bir ruh bilan aloqa kirishidan o‘g‘il farzandlar ko‘rgani aytiladi. U ruh yoki shaxs esa aynan turk yoki mo‘g‘ul ekani ham noma‘lum. Ikkinchi hujjat uchun davom etamiz : Chuymanaxon ibn Yulduzxon ibn Menglixo‘jaxon ib Temurtashxon ibn Kalimuchaxon ibn Savaschi ibn Buqabundurxon ibn Kujambural ibn Kapchi mergan ibn Timachxon ibn Bachun no‘yon ibn Ko‘ymaral ibn Bartachina. Shu yerda yana to‘xtalamizki, “shajarayi turk”da aytiladiki, “Bartachina birlan Qayonning orasi 450 yil turur. Bu ikkisinin orasinda o‘tgan kishilarning otlarini bilali teb ko‘p sa‘y qilduk, muyassar bo‘lmadi. Hech tarixda topmaduk” deya fikrlar aytiladi. Bartachinadan so‘ng bir necha vaqt oraliq tashlanib o‘tib Qayonga to‘xtaladi. Qayon ibn Elxon ibn Tengizxon ibn Yulduzxon ibn Oyxon ( ikkalasi aka-ukalar ham deyiladi) O‘g‘uzxon ibn Qoraxon ibn Mo‘g‘ulxon ( shu yergacha bo‘lgan shajara ham ularni mo‘g‘ul deyilishini dalillagandek bo‘ladi) ibn Almujujannaxon ibn Kuyukxon ibn Debboquyoxn ibn Abulchaxon in Tatakxon ibn Turkxon ( ibn Yofas ib Nuh)dir. Shu ojizona bo‘lsada ayni ularning etniklikni belgilovchi shajaraviy an‘anasiga ko‘ra, mo‘g‘ulxon ham 7 avlod bilan Turkdir. Shunda nafaqat Amir Temur balki Temuchinning ham turkiyligi ayon bo‘lib qolgandek.

Ikkinchi hujjatimiz shuki, Amir Temurning barlos urug‘idan ekanligi hammamizga ayonki, bu urug‘ chingizxon yurishidan keyin jaloyir qabilasi bilan birgalikda Surxon va Kesh vohalariga ko‘chib o‘tganlar va o‘troqlashib turkiy ana‘nalarni ham qabul qilganlar.

Uchinchi hujjatimiz shuki, Amir Temur o‘zining quyidagi firklarini keltiramizki, “ Biz kim mulki Turon amiri Turkistonmiz, Turkning bosh bo‘g‘inimiz”. Ayni davr nuqtai nazaridan kelib chiqib aytamizki, o‘sha davrda mo‘g‘ul qavmidan bo‘lishlik eng sharaflilik hisoblansa-da Amir Temur o‘zining turkiy ekanligini tan oladi. Shunday ekan biz ham bu fikrni qabul qilamiz.

Ikkinchi savolimiz shuki, Amir Temur nega taxtga o‘tirmay, mamlakatni boshqaradi.? Bu ham ayni Chingizxon bilan qardosh ekanligi bilan bog‘lanadi. “Shajarai turk”dan olgan ma‘lumotlarimizga ko‘ra “ Tuminaxon 2 xotinidan 9 o‘g‘il farzand ko‘radi: biridan 7 o‘g‘il va biridan egizak 2 o‘g‘il. Egizaklardan biriga Qobul ( Qoyuvli), ikkinchisiga Qochuvli deb ism qo‘yadilar. Erdumchi (Erumchi) barlos degan o‘g‘lidan “barlos” urug‘i davom etib ketgan. Amir temur ham ana shu urug‘dan bo‘lgan (“ barlos” – sardor). Shunday qilib,

egizaklardan Qobul Chingizxonning uchinchi bobosi, Qochuvli esa Amir Temurning sakkizinchi bobosi bo'lgan..... Tarixdan bizga ma'lumki, Chingizxonning o'g'li Chig'atoyxonning nabirasi Tug'luq Temur Mog'uliston davlatiga qayta asos solib 1348-1362 yillarda boshqaradi. Amir Temur esa el-yurt osoyishtaligi va xavfsizligini o'ylab, uning xizmatiga kiradi. Bu haqda Amir temurning o'zi shunday deydi.

- “1361 – yil tugluq Temur Movarounnahrni o'g'li Ilyosxo'jaga topshirdi, meni esa sipohsolar deb tayinladi. Bu ishga unchalik ro'yxoshlik bildirmayotganligimni ko'rib, mening bobokalonim Qochuvli va o'zining bobokaloni Qobulxonning ahdnomasini ko'rsatdi. Po'lat taxtaga yozilgan va imzolangan ushbu ahdnomada “Xonlik Qobulxon avlodlarining qo'lida, sipohsolarlik - amirlik esa Qochuvli bahodirxon bolalarida bo'lsin, ular hech qachon bir-birlari bilan yovlashmasin, degan so'zlar bilan bitilgan ekan. Buni o'qib ko'rgach, ulug'lar ahdiga vafod qilish uchun amirlikni qabul qildim”. Manbalarda keltirishicha bu ahdnomani qabul qilish sababi quyidagicha bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni Qochuvli ajoyib tush ko'radi va tushini otasi Tumanxon va akasi Qobulxonga so'zlab berdi. Tumanxon tush ta'birini bu ikki o'g'liga tushuntirib bashorat qilib beradi:

- Tushingda menga ayon bo'lishicha, akang Qobul avlodidan birin-ketin 4 shahzoda xonlik taxtiga o'tirib hukmdorlik qiladilar. Ulardan to'rtinchisi shunday ulug' podshoh bo'ladiki, uu jahonda deyarli barcha qudratli mamlakatlarni sindirib, o'ziiga bo'ysindiradi. Sening(Qochuvliga qarata) naslidan bo'lgan yetti avlod esa podshohga o'rinbosarlik – siohsolorlik qilib o'tadilar. Ammo avlodningning sakkizinchisi juda ham ko'p mamlakatlarni zabt etib, islomga rivoj berib, jahongirlik qilgay.

Bunday ulug' bashoratni eshitgan Qobul va Qochuvli ota oldida “Xonlik taxti Sizdan keyin Qobul va uning avlodlariga, hukm yuritish va sipohsolorlik esa Qochuvli va uning avlodlariga bo'lsin. Biz farzandlarimizga ham shuni vasiyat qilamiz deb qasamyod qiladilar. Ular ushbu ahdni uyg'ur yozuvida bitib imzo chekadilar. Unga ota ham o'zining xonlik tamg'asini bosib, tasdiqlaydi va abadiy saqlash uchun xazinachiga topshiradilar. Bu qaror el-yurtga e'lon qilinadi”. Bu ahdnoma Chig'atoy ulusida keyinchalik ham mustahkamlanib borgan. Shunga ko'ra agar Amir Temur taxtga o'tirganda edi. U xalq ommasida ham, mo'gullar orasida ham isyonchi xonadon deb qaralgan bo'lar edi. Temuriy sulolasi ham shayboniylar sulolasi kelguniga qadar siyosiy jihatdan tashviqotlarda ham isyonchi xonadon sifatida ko'rilgan. Ayni damda Amir Temur ham bu yorliqdan 1361 - yildagi Tug'luq Temurning hujumida unumli foydalanib, Kesh dorug'asi lavozimini egallagan lekin u ota-bobolari tomonidan imzolangan yorliq-ahdnomaga

qat'iy amal qilgani bois, unga asli buyuk hukmdor bo'lsa-da sipohsolorlik taqdiri bitgan edi.

Umuman Amir temur bu borada yagona va birinchi shaxs emasdi. Chunki undan avvalroq, amir Qazag'on XIV asrning 40 – yillarida Xon Qozonxonni siyosatdan chetlatib, o'rniga taxtga Donishmanchaxonni qo'ygan edi. Demak, Donishmandchaxon Amir Qazag'onning “qo'g'irchog'i”, Suyurg'atmishxon va Mahmudxonlar esa Amur Temurning. Qiziq tarafi, Amir Temur ham amir Qazag'onning kuyovi ham edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Temur Tuzuklari”. Amir Temur. Toshkent:, 1991 y – G'ofur G'ulom .144 b. (Alixonto'ra So'g'unij tarj.)
2. “Temuriylar shajarasi” Turg'un Fayziyev –T;. “Yozuvchi” – “Xazina” 1995 y.
3. “Shajarayi turk va mo'g'ul “ – Abulg'oziyxon Bahodirxon. “Cho'lpon” -1992.
4. “Tarixi arba' ulus” - Mirzo Ulug'bek. “Cho'lpon” 1994 y. 224 b.